



# МУРАДСЫМ ХЭМ УЗЛИКСИЗ БИЛДИМДЕНДИРИҮ

илимий-методикалық журнал № 5/1



Некис - 2022



**2022-жыл ушын**

**«Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў»**  
**журналына жазылтыў баҳасы төмөндегише:**

**Индекс: 2092**

**Жеке пухара ушын бир жылға 90 000 сум,  
алты айға - 45000 сүм**

**Индекс: 2093**

**Кәрханалар ушын бир жылға 110 000 сум,  
алты айға - 55 000 сүм**

**КК филиал УзНИИПН**

**р/с 20210000800538464001**

**КК.Отд. «ИПОТЕКА БАНК» г. Нукус**

**МФО 00621**

**ИНН: 200362233**



# МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМЛЕНДЕРІҮ



ISSN 2181-7138

№ 5/1 - 2022 жыл

## Илимий-методикалық журнал

**Редактор:**  
**A. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**  
Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ  
Тұлқин АЛЛАЁРОВ  
Уміда БАХАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Аскар ДЖУМАШЕВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ  
Аскабай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбай МИРСАНОВ  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Қаҳхор ТУРСУНОВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Саодат ТОШТЕМИРОВА  
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

**Шөлкемлестириүшилер:**  
**Карақалпақстан Республикасы**  
**Халық билимлендіриү**  
**Министршығы, ОЗПИИИ**  
**Карақалпақстан филиалы**

**Өзбекстан Республикасы**  
**Министрлер Кабинети**  
**жанындағы Жоқарғы**  
**Аттестация Комиссиясы**  
**Президиумының 25.10.2007**  
**жыл (№138) қарапар менен**  
**дизимге альынды**

**Карақалпақстан Баспа сөз ҳәм**  
**хабар агентлиги тәрепинен**  
**2007-жылы 14-февральдан дизимге**  
**альынды №01-044-санлы гүйалық**  
**берилген.**  
**Мәнзил: Нөкис қаласы,**  
**Ерназар Алакөз көшеси №54**  
**Тел.: 224-23-00**  
**e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,**  
**mugallim-pednauk@umail.uz**  
**www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларда жүзега айналған қайтарылмайды, журналда жөннеліккелік мақалалардан алынған үзінділер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан альынды, дең көрсетициүи шарт. Журналға 5-6 бет көлеміндегі материалдар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтінде электрон версиясы менен бирге қабыл етіледі. Мақалада көзітирилген мәлімдемелер автор жүзінде

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ

Сейтқасымов Д.Б. Академиялық лекция сабактарында лингвометодикалық компетенцияны көлиплестириү парадигмасы .....	4
Кенесбаев Қ. Қоралпогистонда журналистика соҳасини илмий- педагогик ўрганишнинг баъзи масалалари .....	8

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Турсунов Қ.ИШ. Таълимни глобаллаштириш – цивилизациямиз глобал муаммоларини бартараф этиш воситасидир .....	12
Турсунова Г.Қ. Талабаларнинг интеллектуал қобилятилари асосида қасбий компетентлителгини тақомиллаштириш .....	17
Шарипова Ш. Инновацион технологиялардан фойдаланишининг дидактик ва педагогик хусусиятлари .....	21
Абдувалиева Д. Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliliginı rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	24
Равшанов Ж.Ф. Ўқувчиларнинг таянч компетентликларини шакллантириш ва компетенциялар турлари .....	28
Qodirov I. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish .....	32
Бекимбетова Г. Каракалпакская народная педагогика: исторические корни воспитания молодежи к человечности .....	38
Исааков Р. Ш., Сангжонов С.Г. Самообразование учителей вузов как психолого-педагогическая категория .....	41
Khojamuratov R. Forming students' value attitude to innovative culture .....	44

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲЭМ РУЎХЫЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Мусурмонкулов О.У. Ўзбекистонда жамоат ташкилотлари ижтимоий фаоллигини оширишнинг педагогик асослари .....	47
---	----

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Шомуров Ш.Ш. Масофавий таълим мухитида бўлажак менежерларнинг ахборот компетентлителгини шакллантириш модели .....	51
Bozorova Sh.E. Fizikaviy kimyonи o'qitishda kreativlik asosida "motivatsiya" metodini qo'llash .....	56
Ilyasova Z.K. Wordwall platformasida interaktiv testlar yaratish .....	60
Мадрахимова Ф. Р. Медиасаводхонликни ривожлантиришда медиаматнлар билан ишлаш ва танқидий фикрларни шакллантириш масалалари .....	63
Tursunova G. Q. Kimyonи o'rganishda talabarning mustaqil o'qish faoliyati samaradorligini oshirish .....	68
Tursunov Q. Sh., Egamberdiyeva O. Sh. Tabiiy fan asoslarini o'qitishda majburiyilik tamoyili .....	71

<b>Кудайбергенов А.А., Аметова Г.Е.</b> Мактаб ўқувчилари томонидан Python дастурлари тилини ўрганишнинг услубий хусусиятлари .....	74
<b>Ergashev I. A., Usmonov B .Z.</b> Chiziqli Diofant tenglamalari va ularni taqqoslamalar nazariysi orqali yechish .....	76
<b>Менгнаров Х.Э.</b> Методика организации и управление микросредой учащегося на уроках математики .....	80

### БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

<b>Ko'palov S. U., Sobirova L.X.</b> 7-yoshli bolalarni harakat sifatlarini oshirish .....	85
<b>Isabekov SH.</b> Xalq o'yinlari va yoshlar tarbiyasi .....	90
<b>Эшбоева С. Қ.</b> Башлангич таълимда экологияга оид тушунчаларни шакллантиришда креатив ёндашувни такомиллаштириш .....	92
<b>Normurodova H. B., Norqobilova R. D.</b> Boshlang'ich sinflarda tarbiya fanining ahamiyati .....	98
<b>Рахмонова С.М.</b> Мактабгача таълим ёшидаги болаларга таълим беришда компетенциявий ёндашув .....	101
<b>Холматова С.И.</b> Башлангич синф ўқувчиларининг ўқиш саводхонлигини ривожлантаришда электрон дастурйи таъминотнинг ўзига хос хусусиятлари .....	105

### ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӨМ СПОРТ

<b>Isabekov SH.</b> Talabalarga jismoniy mashqlar bajarishni o'rgatish va nazorat qilish haqida ....	110
<b>Masharipov R.M.</b> Kurash sport turida mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish .....	113
<b>Isakov R.Sh., Guldayev L.</b> Yosh futbolchilarни tayyorlashda qo'shimcha jihozlar o'mni .....	117
<b>Kotlov Ye.V., Axmedov R.T.</b> Voleybolchilarda o'yin tayyorgarligini shakllantirishda murabbiyining mahorati .....	119
<b>Isakov R.Sh., Xasanov A.</b> Yosh sambochilarning sport mashg'ulotlarini individuallashtirish .....	122
<b>Olimov A.I.</b> Jismoniy madaniyat o'qituvchilarini axborot kommunikatsiya texnologiyalar vosisati asosida tayyorlash xususiyatlari .....	124
<b>Атамуродов Ш.Ў.</b> Башлангич синф ўқувчиларига жисмоний тарбия тадбирлари оркали миллий қадрниятларга асосланган туйгуларни сингдириш йўллари .....	129
<b>Muqimov O. E., Olimov A. I.</b> Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy bilimlarini oshirishda zamonaeviy texnologiyalardan foydalanimish zaruriyat .....	133
<b>Мукимов О. Э., Журабаев А. М.</b> Қисқа масофага югурувчи спортчиларни функционал тайёргарларигина тузилиши .....	137
<b>Sultonov B .A.</b> O'quvchilarini jismoniy tarbiyalashda milliy harakatli o'yinlaridan foydalishning pedagogik imkoniyatlari .....	140
<b>Котлов Е.В.</b> Обеспечение интеллектуального развития студентов в процессе физического воспитания .....	143
<b>Ниязов А.Т., Ниязова О.Ю., Ниязова А.А.</b> Теоретико-методические основы обучения технике игры в баскетбол .....	146
<b>Котлов Е.В., Анорбоева Д.Б.</b> Использование комплексов специальных упражнений при проведении тренировочных занятий по баскетболу .....	149

## РЕЗЮМЕ

Человек должен обладать базовыми компетенциями, необходимыми для того, чтобы вступать в личные, социальные, экономические и профессиональные отношения в своей жизни, занимать свое место в обществе, решать стоящие перед ним проблемы, а главное, быть конкурентоспособным в своей области и профессии.

В статье говорится о формировании базовых компетенций учащихся и видах компетенций в процессе освоения каждого предмета в образовании.

## SUMMARY

A person must have the basic competencies necessary to enter into personal, social, economic and professional relationships in his life, take his place in society, solve the problems he faces, and most importantly, be competitive in his field and profession.

The article talks about the formation of basic competencies of students and the types of competencies in the process of mastering each subject in education.

---

## SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

*Qodirov I.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlamuvchisi*

**Tayanch so'zlar:** kompetensiya, ta'lif texnologiyasi, amaliy bilim, antropotsentrizm, sotsiotsentrizm, mobillik, tanqidiy yondashuv, kreativ ijodkorlik.

**Ключевые слова:** компетентность, образовательная технология, практическое знание, антропоцентризм, социоцентризм, мобильность, критический подход, творческое творчество.

**Key words:** competence, educational technology, practical knowledge, anthropocentrism, sociocentrism, mobility, critical approach, creative creativity.

**KIRISH.** Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalari asosida talabalar kompetentligini shakllantirish varivojlanadirish, zamonaviy pedagogikada kasbiy tayyorgarlik asosimi tashkil etuvchi muhim masalalardan biri bo'lib, bu borada turli xil ilmiy - nazariy qarashlar mavjud. Xususan, an'anaviy, amaliy bilimga, tizimliva shaxs faoliyatiga asoslangan hamda kasbiy kompetensiyani rivojlanadirishga qaratilgan ta'lif texnologiyalari zamonaviy ta'lifning mazmunini tashkil etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda kasbiy kompetensiyani ta'lif texnologiyalari asosida zamonaviy yondashuv va qulay shart-sharoitlar negizida shakllantirish masalalari yagona ta'lif makonini ta'minlash uchun xizmat qildi.

Talabalarning kasbiy kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalari asosida rivojlanadirish bilan bog'liq amaliyotni amalga oshirishda psixologik-pedagogik ko'rsatma va yo'nalishlarni tanlash hamda ularning o'ziga xos va muhim jihatlarini antropotsentrizm[1] va sotsiotsentrizm[2] pedagogikasi bilan bog'liq jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Antropotsentrizm pedagogikasi - shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanadirish asosiy mezon bo'lib, bunda ta'lif jarayonining muhim maqsadi sifatida talaba o'zini o'zi anglashi, ongli faoliyatni amalga oshirishi, o'z qobiliyatini bilishi va baholashi hamda o'zini o'zi rivojlanadirishga bo'lgan ehtiyojlarini real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ilmiy va falsafiy kognitiv munosabatlar doirasida yondashuvni nazarda tutiladi.

Sotsiotsentrizm pedagogikasi - shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanadirishda ta'lif va tarbiya bilan bog'liq jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, jamiyat manfaatlari va qadriyatlarini shaxsga nisbatan ustuvorligini ta'minlash va tasdiqlash, ommaviyva shaxsiy ong muvofiqlik

munosabatini shakllantirish, ijtimoiy vogelknijamiyatda ahamiyatli bo‘lgang‘oyalari negizida idrok etish bilan bog‘liq masalalarni nazarda tutadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni muhim jihat shundaki, bunda kasbiy barqarorlik va kasbiy ustuvorlik elementlari mujassam bo‘lib, istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan talaba shaxsida mobillik xususiyatlarini shakllantiradi. XXI asrda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi dunyoda zamon talabiga javob bera olmaydigan turli ijtimoiy yo‘riqnomalar, hayotiy real ehtiyojdan kelib chiqqan holda boshqasi bilan almashtirish talab etiladiki, bunga mos ravishda ta‘lim tizimida ham innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ulardan maqsadli foydalananish masalalari borgan sari dolzarb bo‘lib bormoqda.

Shundan kelib chiqib sotsiotsentrism pedagogikasining bugungi kundagi vazifasi talabani jamiyatda mayjud bo‘lgan umumiy da‘vatkor g‘oya va qadriyatlarini qabul qilishga tayyorgarligini ta‘minlashdan iboratdir. Bu esa talabalarga ta‘lim va tarbiya berishda shaxs manfaatlari nuqtai nazaridan yondashishni talab etish bilan birga ta‘lim jarayonining ijtimoiy markazlashgan arxitekturasi mazmumini boytish lozimligini ham ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda talabalar uchun birlinchi navbatda, ma‘naviy-ma‘rifiy va intellektual salohiyatni oshiradigan hamda shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish zaruri bilimlarni yetkazish taqozo etiladi. Bu borada V.A.Suxomlinskij shaxsni ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishga yo‘naltirish masalasida to‘xtalib, “muhim maqsad talabaning «Men»ini boshqa shaxslar manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishni ongli ravishda ta‘minlash, shaxs rivojlanishi uning ijtimoiy lashuv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan holda, boshqa birovning qayg‘usini aqli va yuragi bilan his etishi, tushumishi hamda hamdardilik bildirishda ifodalananadi” [10. 51-52] deya ko‘rsatib o‘tgan.

S.L.Soloveychik ta‘lim-tarbiya bilan bog‘liq kompetentlikni shakllantirishni shaxs tarbiyasi bilan bog‘lab tushuntirgan holda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalashda, uning ta‘lim texnologiyalarini qanchalik o‘zlashtirganligiga e‘tibor qaratadi. Uning nuqtai nazaricha, “ta‘lim-bu erkinlik, o‘z-o‘zini ozod qilishga o‘rgatish ekanligini bola ongiga singdirish bo‘lib, pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalangan holda ta‘lim olish bilan bog‘liq mustaqil faoliyatni bola shaxsida qaror toptirishdir” [9. 14-16].

S.N.Lisenkovaning fikricha, “kasbiy faoliyatdagi muvafaqqiyat inson (ya’ni, talaba – I.Q.) shaxsini shakllantirishning asosiy sharti bo‘lib, faoliyat natijalari uning psixologik holatini, o‘qish va izlanishga bo‘lgan munosabatini hamda jamoadagi mavqeini belgilaydi” [6. 86]. Darhaqiqat, talabaning kasbiy faoliyatda erishgan yutuqlari, uning keyingi faoliyatida ichki resurslarni yuzaga chiqaradigan motivatsion omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ruhiy barqarorligini ta‘minlagan holda istiqbolli loyihalarni amalgalashda uchun yangicha yondashuvlarni yaratishga zamin bo‘lib xizmat qiladi. Buning natijasi o‘laroq, talabaning o‘ziga ishonchi ortadi va jamoada yoki ma’lum bir sotsiumda uning shaxsiy mavqe mustahkamlanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari bo‘yicha S.I.Padmazin, Ye.V.Bondarevskaya, A.V.Xutorskoy, I.S.Yakimanskaya, E.N.Stepanov, M.E.Kuznesovkabi tadqiqotchilar qator ilmiy mulohazalarini ilgari surishgan[7, 5, 12]. Ye.V.Bondarevskayaesa “shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ta‘lim-tarbiya mazmuni bilan bog‘lash maqsadga muvofiq‘ligini ta‘kidlab, u “shaxsnинг individualligini, madaniy-ma‘naviy, hayotiy ehtiyojlari va talabalarini qondirishi” bilan izohlaydi[5. 103]. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini loyihalash, yangi tamoyillarini izlashni taqozo etadi. A.V.Xutorskoyning yozishicha,

“shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish, muammoli va evristik yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda talabaning tabiiy, shaxsiy, individual xususiyatlari inobatga oлган holda ta’lim jarayonini loyihalashda diagnostik omillarga e’tibor qaratish lozim”[12.22]. Bizningcha, ta’lim tizimidigitalaba shaxsiy rivojlanishining ijtimoiy-pedagogik modellarini tadqiq etishda muammoli va evristik yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini kognitiv faoliyat bilan bog‘lagan holda tavsiflash, talaba shaxsiy sub’ektiv tajribasida namoyon bo‘ladigan turli holatlarning diagonostikasini muntazam tadqiq etib borish lozim.

Ye.V.Bondarevskayaning fikricha, “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida talabaning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda talabaning e’tiqodi, umidi, ijodkorlik imkoniyati, muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan motivatsiyasi, o‘zini o‘zi rivojlanishin sifati, muloqot madaniyati kabi shaxsiy sifatlariga bog‘liq. Ammo talabaning rivojlanishini faqat tafakkur rivojlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi, chunki talabaning fikrashiuuning kognitiv va shaxsiy xususiyatidan tashqaridagi jarayondir[5. 151]. V.V.Serikov fikricha, “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoni omillari sifatida belgilangan kategoriylar nuqtai nazaridan nazarli jihatdan tahlil etish maqsadga muvofiq. Bunda ta’limning maqsadi va mazmuni, o‘qitish usullari va texnologiyalari hamda samaradorlik mezonlariga e’tibor qaratish lozim [8.79]. A.V.Furmanning fikricha, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda talaba shaxsini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan barcha elementlarni o‘z ichiga oladi [11.14-18].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik, metodik adabiyotlar, o‘quv-me’yoriy hujjalarni o‘rganish, analiz, sintez, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda talaba shaxsiga xos individual xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Bunda, ta’lim texnologiyalari asosida pedagogik jarayonni tashkil etishda quyidagi omillarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqi:

- ta’limiy qadriyatlar va zamona viy turmush-tarzi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash;
- tanqidiy yondashuv va taqdirm etilayotgan vazifa, hamda topshiriqlarga kreativ yondashish ko‘nikmasini shakllantirish;
- ta’lim jarayonida ongli faoliyat iroda kuchini safarbar etish va maqsadga erishishda o‘zini o‘zi boshqarish;
- refleksiv faoliyatni amalga oshirish, ya’ni o‘zini o‘zi bilish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, holatlarini aniqlash, qobiliyatlarini anglash va xatti-harakatlarini tahlil qilish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini hamda ijodiy o‘zini o‘zi anglash va shaxsiy qadriyat tushunchasini unga muvofiqlashtirish;
- qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni his etish va faol ongli faoliyatni tashkillashtirish.

Ye.V.Bondarevskayaning yozishicha, “inson (talaba-I.Q.) shaxsida namoyon bo‘ladigan barcha psixologik jarayonlar, uning mayjudligi va o‘ziga xos tabiatining belgisidir[4.6]. “Ta’lim jarayonining asosiy vazifikasi ta’lim turidan qat’iy nazar, ta’lim oluvchini o‘zini o‘zi anglashi, shaxsiy va ijtimoiy muammolarini tushunishi, ulami hal etishga doir ko‘nikma va malakanri rivojlantirishi hamda ichki resurslarni safarbar etish lozim”[5. 47]. Bizning fikrimizcha, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari negizida inson omili birlamchi manba bo‘lib, bunda talaba o‘zini shaxs sifatida anglashi, o‘zini o‘zi shakllantirishi, o‘z faoliyatini ongli tashkil etishi hamda kasbiy kompetentlik mas’uliyatini his etishi kabi kasbiy sifatlarni shakllantirishi lozim.

Shu nuqtai nazardan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- talabaga xos kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarga e'tibor qaratish;
- talabaga xos kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda madaniy-ma'rifiy muhitni qaror toptirish orqali ma'naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyat manbalarini kundalik turmush tarzida namoyon bo'lishini ta'minlash;
- talabaga xos kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda shaxsiy va kasbiy e'tiqod muvofiqligini "qadriyat" sifatida talabalar ongida qaror toptirish va o'quv faoliyatida aks ettirish mexanizmlarini yaratish.

Bunday pedagogik-psixologik sharoitlar vositalari sifatida quyidagi hamkorlik ta'limi sharoiti ham muhim hisoblanadi:

- o'zini o'zi anglash, ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash;
- o'zini o'zi rivojlantirish metodologiyasi bilan "qurollanish";
- ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga nisbatan ongli faoliyatni tashkil etishi;
- tahviliy kompetentlik sifatlarini hamda kreativligini oshirish;
- "Men" tushunchasini "Biz" tushunchasini bilan almashinuvini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim mazmuni ijtimoiy, axloqiy, estetik va madaniy tushunchalar kompleksi bilan uyg'unlashgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu esa zamonaviy pedagogikaning bugungi kundagi mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu maqsadga erishish uchun Ye.V.Bondarevskaya ta'kidlaganidek, aksiologik, kognitiv, faol-ijodiy va shaxsiy komponentlarni [5.104] zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida ta'lim mazmuniga singdirish va talabalar xarakter xususiyatining tarkibiy qismiga aylantirish lozim. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq nuqtai nazaramizni I.D.Bexning quyidagi ilmiy mulohazasiga tayangan holda asoslash mumkin. Unga ko'ra ta'lim jarayonida pedagogik vaziyatni nazorat qilish va boshqarish, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning asosiy shartidir [3. 29].

Bu jarayon talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmun-mohiyatini belgilab, oly ta'limda o'quv jarayonimi tashkil etish, pedagogik faoliyat muvofiqligini ta'minlash, uning kognitiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Bunda, eng muhim omil, oldindan belgilanmagandan, kreativ yondashuvga yo'naltiradigan ta'limiy faoliyat turlari o'z ustuvorligiga ega bo'lib, talabani individual ishlashga, mavjud shaxsiy tajriba va orttirilgan bilmilar uyg'unligini yuzaga chiqarishga yo'naltiradi. Har qanday kasbiy kompetentlik aslida ma'lum bir pedagogik texnologiyalar asosida shakllanadi.

V.V. Serikov yozishicha, "shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mazmun-mohiyati, uning maqsad va vositalari, eng avvalo, shaxsmi rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, hamda mohirlik bilan undan foydalanishda namoyon bo'ladi. Bunda ta'lim texnologiyalari sifatida vazifa-kontekst, munozara-dialogik, simulyatsiya-o'yin faoliyat turlariga e'tibor qaratish, talaba kasbiy kompetentlikni rivojlanishiga xizmat qiladi" [8.88]. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda tajriba to'plash, mavjud bilim va tushunchalarini amaliyotda qo'llash usulidir. Egallangan ko'nikma va malakan ni shakllantirish, ularidan mohirona foydalanishning adekvatligini yuzga chiqarish, ijtimoiy faoliytki oshirish, kasbiy va shaxsiy faoliyat turiga oid muloqot, simulyatsion faoliyat hamda kreativlikni muntazam shakllantirib borish taqozo etiladi.

Manbalarning kontent tahlilidan kelib chiqib, quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- talaba-shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari mohiyatidan kelib chiqqan holda pedagogik faoliyatning ahamiyati va maqsadini anglashga;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari va bosqichlarini belgilashga;
- talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning o'quv faoliyatni kontekstiga muvofiqligi va pedagogik qadriyatga mosligini tahlil etishga;
- talabalar kasbiy kompetentligini ob'ektivligini ta'minlash, kasbiy qobiliyatini shakllantirish va kreativlik asosida kasbiy sohalarga yo'naltirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida,talabalarda dolzarb bo'lgan kasbiy kompetensiya rivojlanadi, nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligi ta'minlandi,jamoa bilan ishslash malakasi qaror topadi hamda kasbiy qibiliyatlarini rivojlantiradi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida,talabalarda shaxslararo va kasblararo kommunitatsiyani ta'minlash hamda faoliyatda qo'llash imkoniyati yanada ortadi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida,talaba sohaga doirmadaniy qadriyatni o'zlashtiradi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali uning imkoniyati va salohiyatini yanada oshirish kompetentligi rivojlanadi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida,talaba shaxsda kasbiy ko'nikma va malakami mutazam o'zlashtirish imkoniyati yuzaga chiqib, kreativ ijodkorlik kompetentligi shakllanadi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida, talaba ongli ravishda kasbiy faoliyatga nisbatan shaxsiy talabchanlikni oshiradi vao'zini o'zi rivojlantiradi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida,talaba o'zida kasbiy faoliyatga doir yondashuvlarni modellashtirish orqali o'z imkoniyati va salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish kompetentligini qaror toptiradi.

—

Adabiyotlar:

1. <https://strelkamag.com/ru/article/vocabulary-anthropocentrism>
2. <https://voluntary.ru/termin/sociocentrism.html>
3. Бех И. Д. Личностно сориентированное воспитание. – К., 1998. - С. 29.
4. Бондаревская Е.В. Личностно-ориентированный образовательный процесс: сущность, содержание, технологии. – Р.Н.Д., 1995. – С. 6.
5. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. – Ростов на Дону: 2000.
6. Лисенкова С.М. Коли вчитися легко: Педагогічний пошук / Упоряд. І.М. Баженова; Пер. з рос. – К.: Рад. шк. 1988. С.86
7. Подмазин С.И. Личностно-ориентированное образование: Социально-философское исследование. – Запорожье: Просвита, 2000.
8. Сериков В.В. Образование и личность: Теория и практика проектирования педагогических систем. – М., 1999. – С. 79
9. Соловейчик С.Л. Педагогика для всех. Книга для будущих родителей. – М., 1989. – С.14 – 16.
10. Сухомлинский, В.А. Сердце отдаю детям. – К., 1972. – С. 51-52.
11. Фурман А.В. Теория и практика проектирования социально-культурного содержания учебных модулей. // Родная школа. 1998., №10. – С.14 – 18.
12. Хугорская А.В. Методика личностно-ориентированного обучения. Как обучать всех по-разному? / Пособие для учителя. – М., 2005.-С.22.

13. Yunusova, N. Sh., Nazarova, N. J., & Jumaniyazova, N. S. (2022). Pedagoglarda kasbiy kompetensiyani takomillashtirish (oliy ta'lim tizimi misolida). Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (6 (115)), 9-16.
14. Nazarova N. J. UDK: 711.6 Yoshlarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishda ta'limning o'mi //ilmiy axborotnoma. – s. 80.
15. Dadasheva, A. A. (2020). Mahalliy ijro hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini natijadorligini oshirishning ilmiy-nazariy yechimlari. Jurnal pravovix issledovaniy, (special 2-2).
16. N. J. Nazarova (2022). Yosh mutaxassislarining kasbiy raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish (transport sohasi misolida). Academic research in educational sciences, 3 (6), 765-771.
17. Samarov, R. S. (2015). Ta'lim mazmunini belgilashning strukturaviy-funksional jihatlari (shaxsga yo'naltirilgan ta'lim misolida). Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (12), 9-14.
18. Abror Sanakulov, Dustrmurod Rakhamonov, Nilufar Nazarova. (2020). Social Service Technologies and Mechanisms of its Implementations. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(3), 14192 - 14198. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/31869>
19. Jurayeva, N. N. (2020). Universal Factors In Provision Of Youth Life Strategy. International Journal for Social Studies, 6(1), 157-163.
20. Samarov, R. S., & Rakhamonov, D. A. (2016). Social work activity in providing the life of the society (functional-structural analysis). Theoretical & Applied Science, (7), 14-16.
21. Dadasheva, A. A. (2022). Davlat xizmatini isloh qilish sharotida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 117-122.
22. Raxmonov, D. A. (2017). The social-cultural peculiarities of social work (in the model of servicing older people). Theoretical & Applied Science, (11), 285-288.
23. Abdinazarovich, R. D., Anarbaevich, P. K., & Ikromovich, T. A. (2022). Scientific Development in New Uzbekistan: Results and Prospects. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(1), 76-82.
24. Samarov, R., & Farfieva, K. (2014). Yoshlarda jinslararo xulq, muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy ahamiyati. Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (2), 49-52.
25. Matkarimova, J. D. (2019). Civil society and third sector: global aspect. Евразийское Научное Объединение, (5-6), 392-394.

#### РЕЗЮМЕ

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali bunda bo'lajak mutaxassislarda kasbiybarqarorlik va kasbiy o'ziga ishonch tuyg'usi takomillashtirish mujassam bo'lib, bu esa istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarga nisbatan talaba-shaxsida mobililik xususiyatlarini tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Negaki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi jarayonlarda zamon talabiga javob beramaydigan turli ijtimoiy yo'rqnomalr, real ehtiyojni hisobga olмагan turli holatlarni boshqasi bilan almashtirish va shunga mos ravishda ta'lim tizimida ham innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash dolzarblashib bormoqda. Shu boisdan ham mazkur maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalardan samarali foydalangan holda talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim sanalishini nazariy jihatdan asoslangan holda ko'rsatib o'tigan.

#### РЕЗЮМЕ

Развивая профессиональную компетентность студентов на основе личностно-ориентированных образовательных технологий, она воплощается в повышении профессиональной устойчивости и профессиональной уверенности в себе у будущих специалистов, служит воспитанию признаков мобильности. Ведь в стремительно развивающихся современных процессах все более актуальной становится замена различных социальных ориентиров, не отвечающих требованиям времени, различных ситуаций, не учитывающих реальных потребностей, и, соответственно, использование инновационных педагогических технологий в системе образования. По этой причине в данной статье теоретически показана важность развития профессиональной компетентности студентов при эффективном использовании персонализированных образовательных технологий.

#### SUMMARY

Developing the professional competence of students on the basis of personality-oriented educational technologies, it is embodied in increasing the professional stability and professional self-confidence of future specialists, and serves to educate signs of mobility. Indeed, in the rapidly developing modern processes, it is becoming increasingly important to replace various social guidelines that do not meet the requirements of the time, various situations that do not take into account real needs, and, accordingly, the use of innovative pedagogical technologies in the education system. For this reason, this article theoretically shows the importance of developing the professional competence of students with the effective use of personalized educational technologies.